

Baxtiyor Umarov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrası dotsenti (v.b.)
E-mail: Baxtiyorumar@gmail.com*

YOSHLAR TARBIYASIDA MUSIQA SAN'ATINING ZAMONAVIY MASALALARI

Annotatsiya. *O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish maqsadida ko'plab islohotlar amalga oshirilyapti, zero bu orqali jamiyatning, ayniqsa, yoshlarning tarbiyasi, xulq-atvori va dunyoqarashi takomillashib boradi. Bunda, ayniqsa, musiqa san'ati katta ahamiyat kasb etadi. Davlat ham ushbu san'atni rivojlantirish uchun ko'plab ishlarni amalga oshirmoqda. Mazkur maqolada yoshlar tarbiyasida musiqa san'atining tutgan o'rni, uning ma'naviy-axloqiy, estetik va ijtimoiy tarbiyadagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida musiqiy madaniyatga oid dolzarb muammolar, ommaviy madaniyat ta'siri, milliy musiqa an'alarini asrab-avaylash masalalari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *didaktika, tarbiya, yoshlar, musiqa san'ati, qo'shiq, tafakkur, taraqqiyot, renessans, madaniyat, milliy musiqa.*

MODERN ISSUES OF MUSIC ART IN THE UPBRINGING OF YOUTH

Abstract. *In the process of developing the sphere of culture and art in Uzbekistan, significant reforms are being implemented that influence the upbringing, behavior, and worldview of society, particularly young people. Music holds a special place in this context. This article examines the role of musical art in the upbringing of youth and its significance in spiritual, moral, aesthetic, and social education. It also analyzes current challenges facing musical culture in the era of globalization and digital technologies, including the influence of mass culture and the preservation of national musical traditions.*

Keywords: *didactics, upbringing, youth, musical art, song, thinking, development, renaissance, culture, national music..*

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar tarbiyasi masalasi jamiyat hayotida ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, san'at sohasi, aynan musiqa san'ati kelajak yoshlarimiz hayotiy tasavvurlarini yuzaga keltirib, yosh avlodning ijtimoiy-madaniy fikrlashlari, ijtimoiylashuvlari hamda g'oyaviy-badiiy saviyasini boyitishda kerakli omil sanaladi. Musiqa inson qalbiga bevosita ta'sir etuvchi san'at turi bo'lib, yoshlarning ruhiy holati, axloqiy qarashlari va ijtimoiy faolligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari va ommaviy madaniyatning keng tarqalishi natijasida yoshlar musiqiy didi turli yo'nalishlar ta'sirida shakllanmoqda. Bu esa mantiqiy tarbiyada yangi yondashuvlar, zamonaviy masalalarni chuqur tahlil qilishni taqozo etadi. Musiqa san'ati yoshlar tarbiyasida estetik, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Musiqa orqali insonda go'zallikni his etish, ezgulikka talpinish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ulari rivojlanadi. Ayniqsa, yosh davrda tinglangan musiqa asarlari shaxsning ichki dunyosiga chuqur singib, uning hayotiy qarashlariga ta'sir ko'rsatadi.

Yoshlar tarbiyasida milliy musiqa san'atining o'rni beqiyosdir. An'anaviy kuy-qo'shiqlar, maqom va xalq musiqasi namunalarini zamonaviy talqinlarda targ'ib etish yoshlar ongida milliy o'zlikni anglash tuyg'usini mustahkamlaydi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida milliy musiqa namunalarini keng ommaga yetkazish, ta'lim jarayoniga innovatsion usullarni joriy etish musiqiy tarbiyaning samaradorligini oshiradi.

So'nggi yillarda yurtimizda milliy madaniyatimizni, ayniqsa musiqa san'atini yanada nufuzini oshirish, yangilanayotgan O'zbekistonning yangi sahifasini barpo etish, moddiy va nomoddiy madaniy meros namunalarini asrab-avaylash, xalq og'zaki ijodi hamda havaskorlik san'atini keng yoyish, mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonini kuchaytirish, madaniy hamda ijodiy

sohani yaxshilash uchun ko'zlangan vazifalar amaliyotga joriy etilmoqda. 2020-yil 26-mayda "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni ommaga tanishtirildi. Farmonga ko'ra musiqa san'ati va vatanimizdagi ijtimoiy-madaniy integratsiya jarayonini jadallashtirgan manbalar aytib o'tildi. Masalan:

Yurtimizda doimiy ravishda bo'lib o'tadigan, "Raqs sehri" nomli xorijiy tadbir, maqom ijrochiligi tadbiri, "Buyuk ipak yo'li" nomli xorijiy xalq og'zaki ijodiyoti bilan bog'liq tadbir, baxshichilik san'atiga oid xalqaro tadbir va "Sharq taronalari" xorijiy musiqiy tadbir tashkillashtirilib, o'zbek milliy xalq og'zaki san'atining yetuk asarlarini, o'ziga xos jihatlarini va urf-odatlarini hamda xalqaro madaniy aloqalarni takomillashtirish yuzasidan yetuk tizim amaliyotga joriy etildi.

Jamiyatimizning milliy durdonasi sanaladigan moddiy va ma'naviy madaniy merosimizni va musiqamizni asrab avaylash, ilmiy jihatdan tadqiq etish va amaliyotda ishlatish yuzasidan yurtimizda ko'plab islohotlar amaliyotga joriy etilmoqda. Jumladan, Shahrisabz, Xiva Buxoro va Samarqand shaharlarining antik maskanlari xalqaro tashkilot YUNESCONing xalqaro madaniy merosi jadvaliga, "Navro'z durdonasi", "Katta ashula ijrochilari", "Boysun madaniy muhiti", "Askiya", "Osh madaniyati va o'ziga xosliklar" "Shashmaqom noyob musiqasi" nomzodlari Insoniyat nomoddiy madaniy merosiga, muqaddas Usmon nomidagi Qur'on kitobi, buyuk bobomiz Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot institutining tarixiy manbalar to'plami jahon bo'ylab yuksak ulug'langaniga dalil qilsa bo'ladi. Jahon hamjamiyati bilan munosabatda vatanimiz madaniy merosini tadqiq etish va keng yoyish xususida ko'plab amaliy dasturlar, davra suhbatlari, konferensiyalar va seminarlar odatga ko'ra amalga oshirilmoqda [1].

Musiqashunos olimlar sanalgan M.Rahmatova, N.Yuldoshevalar ilmiy tadqiqot ishlarida quyidagi fikrlarni ta'kidlab aytadilar: "Yurtimiz milliy musiqa san'ati vakili G'ulom Zafariy o'zbek musiqasi rivoji yo'lida ko'plab ishlarni amalga oshirgan va bu yo'lda izchil izlanishlar olib borgan. Faoliyat davomida XIX asr

ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Turkiston diyorida istiqomat qilib ijod bilan mashg'ul bo'lgan taniqli sozanda va xonandalarning faoliyatlari to'g'risida tahliliy materiallar yig'adi. G'ulom Zafariy tomonidan e'lon qilingan "Sharq kuylari va cholg'ulari", "O'zbek musiqasi to'g'risida" va "Musika muammosi" kabi ilmiy ishlari moziydan bizlarga yetib kelgan. Ushbu masaladan mulohaza qilish imkoni borki, XIX asr hamda XX asrda mamlakatimizda musiqa san'atini va malakalarini takomillashtirish yuzasidan bir qancha soha vakillari va mutaxassislari o'zlarining munosib ulushlarini qoldirdilar" [2, 52-b].

Yangilanayotgan O'zbekistonda musiqa san'atini har tomonlama yangiliklar bilan birga yuqori darajada nufuzini oshirishda, bu yo'nalishda ishlayotgan mutaxassislarning hissaviy o'rni bor. Ushbu milliy durdona san'atni keng miqyosda yoyishda soha rahbar vakillarining o'rni va hayotiy tajribalari zarur sanaladi. Musika rahbarining ansamblga uqtirishni avvaldan reja qilib qo'yilgan asarni yetuk hamda izchil egallash, so'ng uni qatnashchilarga qay tarzda uqtirish tizimini ishlab chiqadi. Ushbu tizimda ashula va raqs ansambllarida yuzaga kelgan musiqachilar, cholg'uchilar va raqs ishtirokchilariga ushbu asarning qaysi tomonlari qiyinligi, asarning badiiy-g'oyaviy ifodasi va uni tushuntirishning taxminiy ravishda aniq vaqti, izlanish vaqtida aynan qaysi jihatlarga alohida diqqat qaratish kerakligi, yuzaga kelayotgan tushunmovchiliklarni qay tarzda yo'q qilish usullarini aniqlab oladi. Qiyin va murakkabliklar yuzaga keltiradigan holatlarini osonlikcha chetlab o'tish niyatida ayrim mulohazalar bilan birga jamoa ustozining o'zi jarayonda buni ko'rsatib berishi foydadan holi bo'lmaydi.

Musiqa san'atidagi yetuk mutaxassislardan biri bo'lgan professor J.Shukurovning aytib o'tishicha: "Ashulachilar, musiqachilar va raqs ansambllarida asarni birinchi navbatda eshitib, ya'ni nota ishlatmasdan holatda izlanib chiqish oddiy holatga o'tgan. Shu sababli ham ansambllar jamoasi lideri sozanda, cholg'uchilar jamoasining sozanda ansambli singari javobgarlarning musiqa san'atining badiiy jihatini ansambl boshlig'ining istaklariga mos ravishda puxta egallangan bo'lishi kerak. Aksincha ular va ansambl boshlig'i fikrlari ichida ba'zi

masalalar yuzaga keladi hamda qatnashchilarning talqinlarida o'ziga xosliklar yuzaga kelishi mumkin" [3, 90-b]. Yuqoridagilardan quyidagicha xulosaga kelish mumkinki, jamoa boshliqlarining birga badiiy jihatdan munozaraga kirishishlari, jamoaning kreativ birdamligi hamda ijod jo'rligida shubhasiz salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa san'ati yoshlar tarbiyasida kuchli tarbiyaviy vosita bo'lib, ularning ma'naviy, estetik va axloqiy kamolotida muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy davr talablaridan kelib chiqib, musiqiy tarbiyada milliy va zamonaviylik uyg'unligini ta'minlash, ommaviy madaniyat ta'sirini to'g'ri yo'naltirish zarur. Ta'lim muassasalari, oila va jamiyat hamkorligida musiqiy madaniyatni rivojlantirish yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni* //Xalq so'zi. – 2020-yil 28-may.

2. Yuldasheva N., Raxmatova N. *O'zbek musiqa adabiyoti: O'quv qo'llanma; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2016. – 144 b.*

3. Shukurov J. *Badiiy jamoalar bilan ishlash uslubiyati (Ashula va raqs). Darslik. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2020. – 300 b.*